XALQ DEPUTATLARI KOSON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 27-avgust VII-27-182-4-60-K/26 Koson tumani

Koson tumanida obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan koʻrsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun toʻlov tariflari miqdorini tasdiqlash toʻgʻrisida

Koson tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish taklifi boʻyicha Koson tumani hokimining oʻrinbosari M.Djoʻrayevning axboroti eshitildi.

Taʼkidlandiki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-387-sonli qarorning 8.a-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tumanlar markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatishga ruxsat berilgan.

Bunda, chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatganlik boʻyicha tariflar tuman (shahar) hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga koʻrib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilangan.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini taʻminlash maqsadida hamda Koson tumani hokimining oʻrinbosari M.Djoʻrayevning taklifini koʻrib chiqib, Kengashning Mahalliy budjet,

tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi qarorini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosi yuzasidan Koson tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish taklifi bo‘yicha Koson tumani hokimining o‘rinbosari M.Djo‘rayevning axboroti hamda Kengashning Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 24-iyundagi DKQ 03-01/113-26-sonli qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari H.Nazarov va M.Djo‘rayev belgilangan tartibda Koson tumanida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari (narxlari) miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida tuman hokimining qarori loyihasini ishlab chiqsin.

4. Chiqindilarni olib chiqishda to‘lov tarifi hamda chiqindilarni boshqarishda tuman obodonlashtirish boshqarmasi (M.Djo‘rayev), Qashqadaryo viloyati Ekologiya va iqlim o‘zgarishi bosh boshqarmasi Koson tumani bo’limi (O.Ravshanov), tuman tibbiyot birlashmasi (F.Tursunov), tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (N.Avilova) tuman hokimligi bilan birgalikda aholining keng qatlamlari orasida fuqarolarning huquqiy va sanitariyaekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

5. Ushbu qaror “Koson” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan so‘ng kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (H.Nazarov) zimmasiga, qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Allayorov) zimmasiga yuklansin.

KENGASH RAISI **OCHILOV UBAYDULLO AXMATOVICH**

Xalq deputatlari Koson tumani
Kengashining
2026-yil 27-avgustdagi
VII-27-182-4-60-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha

T A R I F L A R

Xizmat koʻrsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki model raqam**	**Oʻlchov birli**	**Tarif miqdori (soʻm)** (QQS bilan)
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	97300,0
Yuridik shaxslar yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun	Obodonlashtirish	m^2	7200,0